

TILNI ASRAMOQ- BOSH MAQSADIMIZ

Abdurahmonov Sardor

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilining bugungi kundagi dolzarb muammolari hamda bu muammolarga jamiyatning butun bir qatlami javobgar ekanligi xususida fikr boradi. Maqolada ona tilimizdan foydalanishda yo‘l qo‘yilayotgan qo‘pol xato va kamchiliklarning asl yechimi qayerda kabi savollarga javob olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, Millat ruhi, Departament, Til muammosi, Jamiyat.

Til vujud bo‘lsa, so‘z uning libosidir. Aytayotgan, yozayotgan so‘zlarimiz bexatoligi ana shu libos ko‘rkamligini belgilaydi. Ma’rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniy: Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmoq, millatning ruhini yo‘qotmoqdir”, deb bejiz aytmagan. O‘zbek tili chindan millatimizning ruhi,milliy madaniyatimizning ajralmas qismidir. Har bir tilning qudrati va afzaliyatlari shu tilni yaratgan xalqning o‘zi bilan birga yashasagina rivojlanib, o‘sib boradi. Demak, el borki, til bor. 1989-yil 21-oktabrda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtirgan, jamiyatimizni ulug‘ maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo‘lib,maydonga chiqdi. Ayni vaqtida u O‘zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo‘yilgan birinchi dadil qadam ham edi. Tabiiyki, til haqidagi qonun mukammal, zamon talablariga mos bo‘lmaganidan keyin, uning ta’siri ham haminqadar bo‘lishi hech kimga sir emas. Buni biz hozirga qadar har qadamda uchratamiz. Birgina, yurtimizda va xalqaro anjumanlarda davlat tiliga bo‘lgan munosabatni olaylik, tilimizga bo‘lgan hurmat-e’tibor ana shunday pallalarda ko‘zga tashlanishi kerakmasmi? Holbuki, bunday anjumanlarda salom-alikdan boshqa birorta o‘zbekcha so‘z eshitmaslik hech kimni ajablantirmaydi. 1989-yilgi til to‘g‘risidagi qonundan qariyb 30-yil o‘tib 2019-yil 21-oktabr kuni davlatimiz rahbari Sh Mirziyoyev, O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi farmonga imzo chekdi. Ushbu farmonda ona-tilimizning kelgusi taraqqiyotiga oid ko‘plab masalalar qatorida alohida tuzilma- Vazirlar Mahkamasing Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Shuncha sa’y-harakatlarga qaramay til muammosi va uning tobora chigallashib borayotgan masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Qizig‘i shundaki,bizning jamiyatda biror muammoni bartaraf etish, yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni tuzatish,qaysidir tashkilot yoxud tuzilma va

unga mas' ul {bir hovuch} insonlarning qamrovi bilan chegaralanadi. Departament tomonidan 5-6 marta o'tkazilgan tadbirlar, 7-8 martalik ommaviy axborot vositalari va matbuotdagi chiqishlar, 3-4 marta berilgan yakuniy hisobotlar - bularning barchasi ho'ja ko'rsingga qilingandek go'yo, ahvol esa o'sha-o'sha eski toz eski hammom... Men o'ylaymanki, yuqorida kabi tuzilmalarda faqatgina topshiriq berilgani uchun hafsalasiz ishlaydigan VIJDONSIZ shaxslar emas, bu ishni o'zining milliy g'ururi va millat oldidagi qiymati cheksiz, ado etilishi esa, shart bo'lgan milliy burchi sifatida ko'rvuchi insonlar o'z zimmasiga olsa, ko'zlangan maqsad sari oldingga siljish bo'ladi. Sir emaski, shu kecha-kunduzda xalqimiz orasida ham o'zbek tiliga bo'lган bepisandlik, loqaydlik kuchaygandan kuchaydi. Tilimizning kattagina qismini chetdan kirib kelgan, ba'zida qo'llangan o'rnidan tamomila boshqa ma'no va mazmunni anglatuvchi so'zlar egallab oldi va bu jarayon hanuz davom etmoqda. Kundalik o'zaro muloqotlarimizni har kuni atrofimizdagi insonlar bilan suhbatda ishlatadigan, yoki qulog'imizga bir kunda yuz, balki ming marotaba chalinuvchi {pozitiv, negativ, ok, vopshe, konkret, udar, chotki, svejiy, pachti} kabi bir qancha chetdan kirib tilimizga, ongimizga o'mashib qolgan so'zlar tashkil etayotgani yuqorida ta'kidlaganimiz millat g'ururining ko'ksiga qadalgan tig' aslida. Shu o'rinda hajvchi Habib Siddiqning, Amirqolik qo'shnilarim nomli hikoyasida o'z yurtida o'zbek tilini o'rganib, bizning yurtimizni ko'rish, odamlarimiz bilan suhbatlashish niyyatida vatanimizga kelgan, amerikaliklarning O'zbekistonda o'zbeklar bilan gaplashib, ularning gapiga tushuna olmagani achchiq kulgu ostida ko'rsatiladi. Amerikaliklar yuz yil avvalgi O'zbek tilini o'rgangan, bu yerga kelganda esa, o'zbeklarning {magazin, obed, optom, protsent, dejurniy, skoriy, remont, peshexod} singari so'zlarini eshitib, ular nimani anglatishini tushuna olmasdan xunob bo'ladi. Masalaning yana bir og'riqli tomoni shundaki, dunyo shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insoniyat turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ommaviy axborot vositalaridan tortib, ijtimoiy tarmoqlarning barcha-barchasidagi o'zbek tili bilan bog'liq xatoliklarni ko'rib, dod deysan kishi. Nima emish: (futbolchilarimiz topni bir-birligiga uzatishyapti), nima emish: (keyingi peredachalarda ko'rishguncha), nima emish: (mehmon san'atkorimizdan ashulani dodaxo'jasini eshitamiz), nima emish: (navbatni reklamaga beramizde kegin davom etamiza). Bu "ishbilarmon juranlistlarimizning xalq qarshisida hech bir hijolatlarsiz baralla yo'l qo'yayotgan xatolari bo'lsa, telekanallar va internet tarmog'idagi lavhalar, ko'ngil ochar ko'rsatuvlarning nomi oshdag'i toshdek tishga botadigan to'mtoq jumlalar, uslubiy xato birikmalar bilan to'laligini kuzatasiz: {Aktyor kids}, {MTV shou kids}, {Sketch shou}, {Salom live}, {Chotki tv}, {Murosasiz challange}, {No comment} sanasak davom etaveradi. Ko'cha-ko'ydag'i har qadamda duch keladiganimiz reklama peshtaxtalaridagi ingilizcha, fransuzcha, ruscha, nemischa yozilgan jumlalarning sanog'ini qo'yib turing, unda-bunda ko'zga tashlanuvchi

o‘zimizning O‘zbek tilida yozilgan so‘zlardagi imloviy xatolar ta’bni xira qiladi: {Fotogirif hizmati}, {Ming hil turdagil aboylar}, {Oshhona, Dorihona}, {Kalla pochcha}, {Xar kuni osh} kabi. Bularni o‘qib olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning kuyinib aytgan bir fikri esga tushadi: O‘zbek tilini o‘zbeklardan himoya qilish vaqt keldi . O‘z tilini yo‘qotgan millatning o‘zligi ham yo‘q bo‘lishi muqarrar.Davlat tili haqidagi qonun ta’sirida yangi yoki til g‘aznasida ko‘pdan bor ammo qo‘llanmay turgan minglab tarixiy toza so‘z va so‘z birikmalari maydonga chiqdi. Biroq ana shunday millat ruhini o‘zida mujassam etgan bu so‘zlar chetda qolib, go‘yoki zamonaviylikning bir ko‘rinishi holatida talqin qilinayotgan ko‘prikni-most, axlatni-musr, yerto‘lani padval tarzda so‘zlashlar ham o‘zbek xalqining lug‘atiga “bezak” bo‘layotir. So‘zdan foydalanishda haqiqiy olim darajasiga ko‘tarilgan yozuvchi Abdulla Qahhor o‘zining 1987-yil “Yoshlik” jurnalining 9-sonida nashr etilgan “Til haqida nutq” maqolasida juda boy, chiroyli tilimiz borligini, bu tilda ifoda etib bo‘lmaydigan fikr, tuyg‘u holat yo‘qligini, bu til ellik yil ichida rus ma’daniyatiga sherik bo‘lib qolganini ta’kidlash bilan bir qatorda radio va radioboshlovchilar faoliyatini keskin taniq ostiga olib shunday yozadi: “Odamlarki bor, bisotidagi bir hovuch so‘zni aylantirib oyligini olaveradi; o‘qish-o‘rganish bilan o‘zbek tilining imkoniyatidan to‘laroq foydalanishni istamaydi yoki bunga farosati yetmaydi. Mana shunaqa odamlarning dangasaligi yoki farosatsizligi, chalamulla olimlarning “ilmiy faoliyati” oqibatida shunday bir til vujudga kelganki, na muomalada, na oilada, na suhbatda hech kim bu tilda gapirmaydi; na oshiq ma’shuqasiga, na ota bolasiga, na bola onasiga bu tilda xat yozadi. Radio xodimlarining o‘zlar ham o‘zaro bu tilda gaplashmaydi. Bu tilni faqat mikrofon ko‘taradi. Bunga faqat mikrofon toqat qiladi”. Xulosa qilinganda, muqaddas ona tilimiz bugungi kunda chindan ham himoyaga muhtoj. Avvalombor, til sohasining yirik namoyondalari, ona tili o‘qituvchilar, barcha mutaxasislar, qolaversa, o‘zbek tilini o‘z g‘urur-sha’ni deb bilgan barchamiz nutqimizga, yozuvimizga jiddiy e’tibor qaratmog‘imiz lozim. Muammoning yechimi esa, yuqoridagi kabi xatolarni tartibga soluvchi, tadbirkorlik bilan shug‘illanuvchi tashkilotlarning nomidan to‘ularning e’lonlaridagi so‘zlarni, yozuvlarni nazorat qiluvchi qat’ iy va muqarrar qonun ishlab chiqilmas ekan, bu holatlarning o‘zgarishi amri mahol.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Omonulla Madayev „Tilimizning ahvoli“ (Kun.uz)2016-yil
- 2.Erkin Vohidov „So‘z latofati“ „O‘zbekiston“ 2018-yil
- 3.Qozoqboy Yo‘ldoshev „E’tiborga muhtoj tilimiz“ 2012-yil
- 4.Hamroh.uz/Xurshid Davron kutubxonasi/Ziyo.uz